XORAZM VILOYATI QO‘SHKO‘PIR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 18-iyun | 150-12-172-Q/25 | Qo‘shko‘pir tuman hokimligi

Qo‘shko‘pir tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 25-moddalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Qo‘shko‘pir tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (X.Ibragimov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i (Sh.Jumaniyozov), tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblansin.

4.O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qo‘shko‘pir tumani bo‘limi boshlig‘i (B.Gapurov)ga mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga maktab yoshidagi bolalarni

umumta’lim muassasalariga jalb etish jayonida tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya qilinsin.

5.Mazkur qaror qabul qilinishi bilan tuman hokimining 2024-yil 27-maydagi 288-12-172-Q/24 -son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6.Ushbu qaror Qo‘shko‘pir tumani hokimining rasmiy nashri hisoblangan “Hayot ko‘zgusi” gazetasida hamda veb-saytda e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (X.Ibragimov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh. K. Axmedov**

Tuman hokimi **Sh. K. Axmedov**

Qo‘shko‘pir tumani hokimining
2025-yil 18-iyundagi
150-12-172-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Qo‘shko‘pir tumani hokimining

2025-yil 18-iyundagi

148-12-172-Q/25-son qaroriga

1-ilova

Maktab yoshidagi bolalarni ta’limga to‘liq jalb qilish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablarini mikrohududlarga biriktirilishi

T/r	Maktab nomi	0-7 yoshli o‘quvchilarni qabul qilish uchun belgilangan hududlar
1	1-maktab	Taraqqiyot mahallasi Umar Hayyom, Olchazor, Nafosat, Tinchlik, Xorazm, Dehqonbod, A.Qodiriy, Navoiy, Adolat, Istiqbol ko‘chalari, Mustaqillik ko‘chasining ayrim qismlari
2	2-maktab	Madaniyat mahallasi Mustaqillik ko‘chasi ayrim qismi, Gulzor ko‘chasining ayrim qismlari,” Munis, Navro‘z, Istiqlol, Navbahor, Kenagas, Ulug‘bek, Me’mor, Ibn-Sino, Qo‘shko‘pir, Feruz, Sh.Rashidov ko‘chasining ayrim qismi; Gulzor mahallasi Haqiqat, Oq Oltin, A.Qahhor, Yovg‘ir mahallasi, Sharq ko‘chalari
3	3-maktab	Baratlar mahallasi Nurhayot, Ulamolar, Me’morlar, Bog‘i Yeram, Oydin, Sardorlar,Tantana, Qadrdonlar, Yangi Hayot ko‘chalari, Arablar mahallasidan Avesto, Obi hayot, Shijoat, To‘ytepa, Tarona, Bahoriston, Boboraxim Mashrab ko‘chalari
4	4-maktab	Taraqqiyot mahallasi Muqumiy, Xonobod, Furqat, Olchazor ko‘chalari; Yovg‘ir mahallasi Shayxaro ko‘chasi; Yangilik mahallasi Nargiz, Yangi Avlod, Firdavs, N.Qubro, J.Manguberdi, Alpomish, Toshkent, Nafosat va Feruz ko‘chalari
5	5-AFCHO‘SM	Chamanzor mahallasi Charos, Ravshonlik, Soxil ko‘chasi, Mesit mahallasi Alpomish, Inoq, Begoyim, Zulfiyaxonim, Navro‘z, Yosh o‘spirin, Olmas, Sharshara, ko‘chalari; Iqbol mahallasi Beruniy, Do‘stlik, X.Olimjon, N.Kubro, O‘zbekiston, Nodirabegim, Cho‘lpon, Oqdarband

		ko‘chalari, Xumo ko‘chasi
6	**6-maktab**	Ayronko‘l mahallasi Istiqlol, Yoshlik, Gavhar, Inoqlar,Chinoz, Xidoyat ko‘chalari
7	**7-maktab**	Shixmashhad mahallasi Yangi Qaromon, Yangi shahar, Tafakkur, Kelajak, Sharqona, Kenagas, Yangilik, Katta bog‘ ko‘chalari
8	**8-maktab**	Bahoriston mahallasi va Chamanzor mahallasidagi Sh.Rashidov,Oybek, K.Otaniyozov, Al-Xorazmiy,Uyg‘ur ko‘chalari
9	**9- AFCHO‘SM**	Dovud mahallasi Zafar, Sharq gavhari, Shifokor, Zakovat, Tengdosh, Xalq so‘zi, Ziyoli, “Nezaxos” mahallasi Nonvoylar, Oqtepa ko‘chalari
10	**10-maktab**	Kenagas mahallasi Oltin voha ko‘chasining ayrim qismlari; Qoramon mahallasi Sog‘lom avlod, Gulchechak, Parvona, Sog‘lom avlod, Joziba, Birdamlik, Diyor ko‘chalari
11	**11-maktab**	Kenagas qishlog‘i Qo‘chabog‘,Osiyo, Hamkor, Bog‘ishamol, Oltin-Voha ko‘chasining ayrim qismlari, Durkon, Rizq, Tafakkur ko‘chasining ayrim qismlari
12	**12-maktab**	Shixmashhad mahallasi Fazo, Quvonch, Serviqor, Iftixor, Yangi shahar ko‘chasining ayrim qismlari, Madaniyat, Sharqona, Kelajak, Maftunkor ko‘chalari
13	**13-maktab**	Zarbdor mahallasi Marjon, Gulbog‘, Farovon, Jannatmakon, Al Farg‘oniy, M.Qoshg‘ariy, Iftixor ko‘chalari
14	**14-maktab**	O‘rta qishloq mahallasi Muhammad Yusuf ko‘chasining ayrim qismlari, Ziyokor ko‘chasining ayrim qismlari, Matonat ko‘chasining ayrim qismlari, Ozodlik ko‘chasining 1 va 2- yo‘laklari, Nastarin, Xumoyun, Bedil, Amudaryo, Behbudiy, Maxmud Sheroziy, A.Avloniy
15	**15-maktab**	Polvon mahallasi Muhammad Yusuf ko‘chasining ayrim qismlari, Behbudiy ko‘chasining ayrim qismlari, Ahillik ko‘cha 1-yo‘lak, Ahillik ko‘cha 2-yo‘lak, Xakimboy 1, Xakimboy 2,Ziyokor, Ishonch, Xadra, Ozodlik ko‘chalari
16	**16-maktab**	Polvon mahallasi Nurafshon ko‘chasi
17	**17-maktab**	Xonobod mahallasi Tong yulduzi, Umidbaxsh, Vatanparvar, Xalq parvar, Chamanzor, Fayzobod, Bunyodkor ko‘chalari; Oltin Voha mahallasi Ma’rifat, Mash’al,Oltinchinor, E’zoz ko‘chalari, Totli, Zilol, Saxovat, Sarbon ko‘chalari

18	**18-maktab**	Qadriyat mahallasi G‘alaba, Vatanparvar, Namuna, Tashabbus, Navro‘z, Islohotchi, Matonat, Qadriyat, Ziyokorlar, Yuksalish, Yangi turmush ko‘chalari, Oltin Voha MFYning Mash’al ko‘chasi
19	**19-maktab**	Durdona mahallasi Xo‘jamqul, Berk, Toza suv, Xavaskor bilim, Orzu ko‘chalari, Oltin Voha MFYning Totli ko‘chasi
20	**20-maktab**	Xayrobod mahallasi Yog‘du, Oltin Voha, Guliston, Qadriyat, Kamolot, Turkiston, Yangi yer, Mevaston, Jaloyir, Bo‘stonlik, Yangiobod, Madaniyat, Jayxun, Orzu ko‘chalari
21	**21-maktab**	Ko‘nazey mahallasi Ma’rifat gulshani, Yurt Ravnaqi, Yangi hayot, Taraqqiyot, Tabarruk, Jayxun, Ibrat, Porloq kelajak ko‘chalari
22	**22-maktab**	Xosiyon mahallasi Sadriddin Ayniy, Imom Al-Buxoriy, Termiziy, Sergul, Afrosiyob, Binokor ko‘chalari
23	**23-maktab**	Adolat mahallasi Bodomzor, O‘rikzor, Olmazor, Rayxon, Obod, Xonobod, Mehnatobod, Bog‘bonlar, Gulruh, Ilg‘or ko‘chalari; Iftixor mahallasi Arablar va Yangilik ko‘chalari
24	**24-maktab**	Uyg‘ur mahallasi Tadbirkorlar, Nurli yo‘l, Yoshlar, Tinchlik, Uyg‘ur ko‘chalari G‘alaba mahallasi Saodat, Temirchilar, Ko‘ktepa, Mushtarak, Sohibkor, Dilkash, Kamolot ko‘chalari
25	**25-maktab**	Chamanzor mahallasi Mustaqillik ko‘chasi, Pahlovon Mahmud, Ogaxiy, Beruniy, Bobur, Sharof Rashidov ko‘chalari
26	**26-maktab**	Bog‘zor mahallasi Vatanparvar, Oqyop ko‘chalari
27	**27-maktab**	Oshoq qal’a mahallasi Baraka, Tadbirkorlik, Obod maskan, Oshoq qal’a, Dirband, Nurjaxon, Zakovat, Mehrigiyo ko‘chalari
28	**28-maktab**	Ittifoq mahallasi Oqdarband ko‘chasi, Yuqori qal’a, Ravnaq, Katta hovli, Tengdoshlar, Katta xovuz, Sharq gavhari, Qo‘sh hovli, Kat yoqa ko‘chalari
29	**29-maktab**	Shihobod mahallasi Munis Xorazmiy, Nurzamon, Osoyishtalik, Taraqqiyot, Gulchilar, Tabbaruk zamin, Salomatlik, Muhtasham,Ko‘klam, Obod mahalla, Abdurauf Fitrat ko‘chalari. Bog‘zor mahallasi Vatanparvar, Oqyop ko‘chalari
30	**30-maktab**	Sherobod MFY Do‘stlik ko‘chasining bir qismi, Yoshlik, Ziyolilar, Pahlavon Mahmud, Hunarmandlar ko‘chasining bir qismi, Bektosh, Nuroniy, Tinchlik ko‘chasining bir qismi, Sohil bo‘yi, Adolat, Chamanzor, Obod ko‘chalari.

31	**31-maktab**	Ilgaldi MFY Suvchi, Said baxshi, Rais ota, Eshonbobo, Tadbirkorlar koʻchasining bir qismi, Madaniyat, Istiqlol; Mehnatobod MFY Olmazor koʻchasining bir qismi, Sevinch koʻchalari
32	**32-maktab**	Bekobod MFY Ustalar, Fayz, Tong, Bahor, Kulollar, Lochin, Yashnaobod koʻchalari, Sherobod MFY. Hunarmandlar koʻchasining bir qismi ,Tinchlik koʻchasining bir qismi
33	**33-maktab**	Mehnatobod mahallasi Turon Zamin, Samarqand, Olmazor, Sevinch, Tadbirkorlar, Madaniyat, Istiqlol, Gulzor koʻchalari
34	**34-maktab**	Paxtakor mahallasi Abu Nasr Farobiy, Ostona, Abadiyat, Baxt Saodat, Buyuk Zamin, Abulgʻozi Bahodirxon, Mardona, Porloq, Buyuk ipak yoʻli koʻchalari
35	**35-maktab**	Qorovul mahallasi Archazor, Toʻmaris, Qoʻhna zamin, Oydinkoʻl, Kattabogʻ, Zulfiya, Mustaqillik-1 ayrim qismi, Tarsyoq, Istiqlol ayrim qismi, Istiqlol-2, Istiqlol-3, ayrim qismi, Navoiy koʻchalari
36	**36-maktab**	Boʻrloq mahallasi Boʻstonliq koʻcha, Obod koʻcha, Nurli hayot koʻchasi, Amirqum, Paxta obod koʻchalari
37	**37-maktab**	Nezaxos mahallasi Barkamol avlod, Xidoyat, Chiqirchi, Turon, Ozodlik, Matonat koʻchalari
38	**38-maktab**	Amirqum mahallasi Umid nihollari, Anxor, Paxtaobod, koʻchalari Qorovul maxallasidan Archazor, Mevazor, Jayxun, Muqumiy koʻchalari
39	**39-maktab**	Tegalak mahallasi Semrugʻ, Jasorat, Koinot, Tong yulduzi, Oltin boshoq, Afrosiyob koʻchalari
40	**40-maktab**	Oshoq qal'a mahallasi Oʻzbekyop, Berk koʻchasi
41	**41-maktab**	Iftixor mahallasi Iqbol, Oʻrikzor, Yangilik, Qadriyat, Taraqqiyot, Navbahor, Mevazor, Bogʻishamol, Zakovot, Eshonbobo koʻchalari
42	**42-maktab**	Vahimchi mahallasi Mustaqillik, Mustaqillik 1, Mustaqillik 2, Paxtakor, Paxtakor 2, Istiqlol ayrim qismi, Navoiy koʻchasining ayrim qismi
43	**43-maktab**	Polvon mahallasi Ishonch, Xushmanzara, Quyoshli, Axillik, Xadra, Polvonlar, Xakimboy koʻchalari
44	**44-maktab**	Koʻktom mahallasi Xon yoʻli, Obod yurt, Barkamollik, Koʻktom, Koʻktom 1,2,3,4,5-yoʻlak, Buyuk Turon, Oʻzbegim, Yangi yoʻl, Xorazm yulduzi, Oltin koʻl, Quyoshli zamin koʻchalari, Qadriyat mahallasi Vatanparvar, Tashabbus, Navroʻz, Qadriyat, Ziyokorlar koʻchalari
45	**45-maktab**	Doʻstlik mahallasi Obod zamin, Ona zamin, Xumo,

		Ko‘hna voha, Gulshan, Nihol, Navnihol, Tarovat ko‘chalari
46	**46-maktab**	O‘rtayop mahallasi Amudaryo, Paxtakor, Ustozlar, Ogaxiy, Gujumli, Ilg‘or, Navro‘z, Mustaqillik, Namuna, Tadbirkor, Bog‘iston, Bog‘bonlar, Adolat, O‘zbekiston, Xorazm, Xotira, Gulruh ko‘chalari, “Adolat” mahallasi Adolat, Yeshonbobo, Ustalar ko‘chalari
47	**47-maktab**	Xosiyon mahallasi G‘afur G‘ulom, Nurniyoz, Sholikor, Tozabog‘, Moziy, Oydin Zamin ko‘chalari
48	**48-maktab**	Xonobod mahallasi Fayzi obod, Sarbon, Zilol, Bunyodkor, Ye’zoz, Gullola, Saxovat, Iqbol, Totli, Tong yulduzi ko‘chalari
49	**49-maktab**	Yoshlik mahallasi Avaz O‘tar, Nurafshon, Hamdo‘stlik ko‘chalari
50	**50-maktab**	Baratlar mahallasi Yangi hayot, Qadrdonlar, Nur hayot, Lolazor, Registon, Avesto ko‘chalari
51	**51-maktab**	Tegalak mahallasi Meros, Tong yulduzi, Jasorat, Oltin boshoq ko‘chalari
52	**52-maktab**	Shixmashhad shaharcha O‘zbekiston”mahallasi Maftunkor, Yangi davr, Mirob, Fahr ko‘chalari
53	**53-maktab**	Sherobod MFY Gulzor ko‘chasi,Yangi avlod,Gulshan ko‘chasi,Obod ko‘chasining bir qismi 87-124-xondonlari,Do‘stlik ko‘chasidagi 12,13,14,17,9,11 xonadonlari. Mehnatobod MFY Olmazor ko‘chasining bir qismi
54	**4-AFCHO‘SM**	Bahoriston mahallasi Oybek, Al-Xorazmiy, Uyg‘un, Toshkent, K.Otaniyozov, Sh.Rashidov ko‘chasining ayrim qismi
55	**1-AFCHO‘SMI**	Gulzor mahalla
56	**54-maktab**	Yovg‘ir mahallasi Az-Zamaxshariy, P.Maxmud ko‘chalari, Taraqqiyot mahallasi, Sputnik ko‘chsining barcha berk ko‘chalari